



**VAQT VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH ASOSIDA INVESTITSIYA
LOYIHALARINI BOSHQARISH**

PhD, dots. Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich

Toshkent kimyo-tehnologiya instituti

ORCID: 0000-0002-1099-637X

khujamurodovaskarjon@gmail.com

Esanboyev Furqat Jalol o'g'li

Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0006-3112-012X

esanboyevf@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonida vaqt va samaradorlik omillari qanday baholanayotgani yoritib beriladi. Asosiy e'tibor loyihaning hayotiy sikli davomida samaradorlikni oshirish va loyihaning amalga oshirilish muddatlarini qisqartirish orqali iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarga qaratilgan. Bu mavzu hozirgi kunda juda dolzarb bo'lib, loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Investitsiya loyihalari bo'yicha qaror qabul qilish jarayoni ko'pincha resurslarning cheklanganligi va vaqt omili bilan bog'liq bo'lib, samarali rejalashtirish va boshqaruv talab etiladi.

Tadqiqotda loyihalarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Jumladan, loyihalarning vaqtni tejash imkoniyatlari va rentabelligini oshirish uchun samaradorlik mezonlari tahlil qilingan. Vaqtni boshqarishning loyiha iqtisodiyotiga ta'siri chuqur o'rganilib, turli loyihalarni amalga oshirishda vaqtni qisqartirish orqali iqtisodiy foyda olish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan omillar, shu jumladan, moliyaviy resurslarning optimal taqsimoti, ish kuchi va texnologik infratuzilma kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Loyerha boshqaruvida vaqtni to'g'ri rejalashtirish va samarali foydalanishning investitsiya jarayoniga ta'siri amaliy misollar yordamida ko'rsatilgan. Ishda nazariy asoslar bilan bir qatorda, O'zbekiston va xalqaro tajribaga asoslangan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihalari, loyiha, loyiha boshqaruvi, vaqt, vaqtni rejalashtirish, samaradorlik, samaradorlik baholash, vaqt boshqaruvi, resurslar.

**УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ НА ОСНОВЕ
ОЦЕНКИ СРОКА И ЭФФЕКТИВНОСТИ**

К.э.н. доц. Хужамуродов Аскаржон Жалолович

Ташкентский химико-технологический институт

Эсанбоев Фурката Джасалал угли

Академии банковского дела и финансов РУз

Аннотация. Данная исследовательская работа проливает свет на то, как оцениваются факторы времени и эффективности в процессе управления инвестиционными проектами. Основное внимание уделяется возможностям получения экономической выгоды за счет повышения эффективности и сокращения сроков реализации проекта в течение жизненного цикла проекта.

Эта тема сегодня очень актуальна и считается одним из главных критерии успешной реализации проектов и повышения их экономической эффективности. Принятие решений по инвестиционным проектам часто ограничено во времени и требует эффективного планирования и управления.

В исследовании были изучены теоретические и практические аспекты управления проектами. В частности, были проанализированы критерии эффективности для увеличения возможностей экономии времени и прибыльности проектов. Подробно изучено влияние тайм-менеджмента на экономику проекта, а также рассмотрены возможности получения экономической выгоды за счет сокращения сроков реализации различных проектов. В исследовании анализируются факторы, необходимые для повышения эффективности управления проектами, включая оптимальное распределение финансовых ресурсов, рабочей силы и технологической инфраструктуры. На практических примерах показано влияние правильного планирования и эффективного использования времени при управлении проектами на инвестиционный процесс. Помимо теоретических основ, в работе представлены примеры, основанные на узбекском и международном опыте.

Ключевые слова: инвестиционные проекты, проект, управление проектом, время, планирование времени, эффективность, оценка эффективности, управление временем, ресурсы.

MANAGEMENT OF INVESTMENT PROJECTS BASED ON TIME AND EFFICIENCY ASSESSMENT

*PhD, assoc. prof. Khojamurodov Askarjon Jalalovich
Tashkent Institute of Chemical Technology
Esanboyev Furqat Jalal ugli
Academy of Banking and Finance*

Annotation. This research paper sheds light on how time and efficiency factors are evaluated in the process of managing investment projects. The main focus is on the opportunities to obtain economic benefits by increasing efficiency and shortening project implementation periods during the project life cycle. This topic is very relevant today and is considered as one of the main criteria for successful implementation of projects and increasing their economic efficiency. Decision-making on investment projects is often time-constrained and requires effective planning and management.

Theoretical and practical aspects of project management were studied in the research. In particular, efficiency criteria were analyzed to increase the time-saving opportunities and profitability of the projects. The impact of time management on the project economy has been thoroughly studied, and the possibilities of obtaining economic benefits by reducing the time in the implementation of various projects have been considered. The study analyzes the factors necessary to improve the effectiveness of project management, including the optimal allocation of financial resources, manpower and technological infrastructure. The impact of proper planning and effective use of time in project management on the investment process is shown using practical examples. In addition to theoretical foundations, examples based on Uzbekistan and international experience are presented in the work.

Keywords: investment projects, project, project management, time, time planning, efficiency, efficiency evaluation, time management, resources.

Kirish.

Investitsiya loyihalari zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va murakkab elementlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar, davlat tashkilotlari va xalqaro kompaniyalar resurslarni to'g'ri taqsimlash va ularni samarali boshqarish orqali o'z raqobatbardoshligini saqlab qolishlari va moliyaviy natijalarini yaxshilashlari mumkin. Har qanday investitsiya loyihasining muvaffaqiyati asosan vaqt ni samarali boshqarish va loyiha davomida qo'yilgan maqsadlarga erishishda samaradorlikni oshirish bilan bog'liq. Vaqt ni to'g'ri rejorashtirish va samaradorlikni aniq baholash investitsiya loyihasining umumiy muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar sifatida qaraladi (Karimov, 2007).

Loyihalar turli xil omillar va cheklowlarga ega bo'lib, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aniqlik, vaqt va resurslarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqt ni boshqarish, loyiha bosqichlarini rejorashtirish, resurslarni optimallashtirish va xatarlarni boshqarish kabi jarayonlar loyihaning umumiy samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Vaqt ni samarali boshqarish orqali loyiha jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kechikishlarni oldini olish, xarajatlarni nazorat qilish va resurslarni tejash imkoniyati yaratiladi.

Samaradorlikni baholash esa loyihaning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Investitsiya loyihasining samaradorligi moliyaviy ko'rsatkichlar, resurslardan foydalanish darajasi, hamda loyihadan kutilayotgan natijalar bilan o'lchanadi. Samaradorlikni o'lhash orqali loyiha davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi. Shuningdek, samaradorlikni tahlil qilish orqali resurslar va vaqt ni optimallashtirish imkoniyati tug'iladi, bu esa loyiha natijalarini yaxshilashga olib keladi (Нодирханов, 2011).

Investitsiya loyihalarini boshqarishda vaqt va samaradorlikni to'g'ri baholash korxona yoki tashkilotning strategik maqsadlariga erishishiga katta yordam beradi. Vaqtning noto'g'ri rejorashtirilishi yoki samaradorlikning pasayishi loyiha salbiy ta'sir ko'rsatishi va uni iqtisodiy jihatdan zararli qilish xavfi bor. Shu sababli, loyiha jarayonini uzluksiz ravishda monitoring qilib borish, natijalarini baholash va kerakli o'zgartirishlar kiritish zarurdir.

Muxtasar qilib aytganda, vaqt va samaradorlik investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatini ta'minlashda asosiy omillar sifatida katta ahamiyatga ega. Vaqt ni to'g'ri boshqarish va samaradorlikni aniq baholash loyiha jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, resurslarni optimal darajada taqsimlash va natijalarga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'ldik. Ulardan P.Mihayela, A.Vaqar, X.Helian tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o'zgarishlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimiga ijobiya ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

Karimov (2007) xorijiy investitsion korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma'muriy shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, dasturini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etiladi.

Nodirxanov (2011) o'zining ilmiy tadqiqotlari orqali mintaqaviy darajada investitsiya faolligini oshirish usullari, mintaqalarda investitsiya muhitini baholash, imtiyozli investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi qulay investitsiya muhitini shakllantirish jarayonlarini o'rganadi.

G'ozibekov, Nosirov (2007) ilmiy izlanishlarida investitsion salohiyatni oshirishda soliq yukini kamaytirish, fond bozorlari o'rnini keskin oshirish, xususiy xorijiy investitsiyalarni keng

jalb etish uchun qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish tadbirlari samarali amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etiladi.

Hoshimov (2022) tadqiqotida xorijiy investitsiyalarga quyidagicha ta'rif bergan, subyektlar tomonidan nisbatan yuqori darajada foyda olish maqsadida bir mamlakat hududidan mutloq boshqa mamlakat hududiga muayyan muddatga joylashtiriladigan turli ko'rinishdagi boyliklarga xorijiy investitsiyalar deyiladi.

Umarov (2018) tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiya jalb qilish ko'lамини kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Burxanov (2018) tadqiqotlari orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiynazariy jihatlari o'rganilib, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muammoli jihatlari asoslangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Investitsion loyixaga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar keltirilgan bo'lib bizningcha investitsion loyiha – bu dastavval iqtisodiy foyda (daromad) olish maqsadida yangidan yoki amal qilib turgan ishlab chiqarish (mahsulot ish xizmatlar ko'rsatish) faoliyatini modernizatsiyalash uchun loyixalash qurilish texnologiya va asbob-uskunalar olib kelish kadrlar tayyorlash va boshqalarni o'z ichiga oladigan kompleks tadbirlar rejasি hisoblanadi. Bu nafaqat biron-bir faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob hujjatlar tizimi balki aniq maqsadga erishish uchun uni amalga oshirishga mo'ljallangan tadbirlar majmui hisoblanadi (G'ozibekov, Nosirov, 2007).

Davlat, korxona va tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosining mohiyati shundan iboratki, har xil xarajat birligiga (mehnat, moddiy, moliyaviy) ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar va foyda hamda milliy daromadni oshirishga erishish lozim bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida vaqt va samaradorlikni baholash asosida investitsiya loyihalarini boshqarish masalalari va xalqaro amaliyotda ekologik soliqlarning budget daromadlarini shakllantirishdagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya loyihalarini baholash va saralashdan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun, investitsiya loyihasining iqtisodiy maqsadga muvofiqligi, investitsiyalarning muddati va hajmini asoslash, shuningdek, investitsiyalarni amalga oshirish va ulardan foydalanish bo'yicha amaliy harakatlarning tavsifi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy qilib aytganda, bu shunday hujjat to'plami bo'lib, unda nima uchun ayni loyiha kerakligi, u qanday maqsadlarni o'zida aks ettirishi, qanday vazifalarni hal qilishi, qancha mablag' sarflash kerakligi va nima uchun aynan shu miqdor ekanligi, bu mablag'lar qanday ishlatalishi, nima amalga oshirilishi, qayerda amalga oshirilishi, bu yaqin atrofdagi hududlar va tegishli sanoat tarmoqlariga qanday ta'sir qilishi, qanday natijalar olinishi, loyihadan kim foyda ko'rishini o'zida aks ettiradi (Hoshimov, 2022).

Buning natijasida investitsion loyihalar bir-biridan keskin farqlanadi. Shunday qilib, belgilangan maqsadlar va hal qilinadigan vazifalarga ko'ra, investitsiya loyihalari quyidagi turlarga bo'linadi (1-jadval):

1-jadval

Investitsiya loyihalarini turlarining ifodalananish

Investitsiya loyihalarining turlari	Izohi
Ishlab chiqarish	Investitsiyalar ishlab chiqarishdan foyda olish maqsadida modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltiriladi va buni har qanday sohada amalgalashirish mumkin.
Ilmiy va texnik	Bu materiallar, mashinalar, uskunalar, texnologiyalar va jarayonlarni ishlab chiqish va keyinchalik amaliyotda qo'llash uchun mo'ljallangan investitsiyalardir. Odadta ular uzoq muddatli va uzlukli ko'rinishda amalgalashiriladi va natijalari keyinchalik ishlab chiqarish loyihalarida qo'llaniladi.
Tijorat	Bunday loyihalar ko'char va ko'chmas mulkni yuqori qiymat bilan sotib olish va qayta sotishni maqsad qiladi. Ushbu turdag'i loyihalar kamdan-kam hollarda davlat investitsiyalari hisobidan moliyalashtiriladi, shunday bo'lsada amaliyotda bunday holatlar ham uchrab turadi. Shunga qaramasdan, ular davlat byudjeti mablag'lari hisobidan emas, balki davlat taraqqiyot jamg'armalari va boshqa turdag'i tijorat tuzilmalarining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.
Moliyaviy	Bu turdag'i investitsiya loyihalarini birjada keyinchalik yuqori qiymatda sotish maqsadida o'z portfelini shakllantirish uchun qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog'liq. Tijorat loyihalarini singari, ushbu loyihalar ham faqat taraqqiyot fondlari amaliyotida uchraydi.
Ekologik	Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq investitsiya loyihalarini. ular uzoq muddatli xususiyatga ega.
Ijtimoiy	Ushbu turdag'i loyihalardan ko'zlangan asosiy maqsad, tijoriy daromadlar emas, balki ta'lim, sport, sog'liqni saqlash, madaniyat va shunga o'xshash boshqa sohalarda ahvolni yaxshilash hamda aholining turmush darajasini amalgalashirish hisoblanadi.

Manba: ilmiy adabiyotlar va internetdagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida jadvalda Investitsiya loyihalarini turli ko'rinishlarda, ya'ni ishlab chiqarish, ilmiy va texnik, tijorat, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy holatlarda bo'lishini ko'rdik. Investitsiya loyihalarining turlari ularga nisbatan ko'zlangan maqadlari bilan farqlanib turadi.

Investitsiya loyihalarida qurilish ishlarini nazarda tutuvchi yoki nazarda tutmaydigan, yangi loyihalarni yoki rivojlantirish va kengaytirish loyihalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu turdag'i loyihalarning har biri o'z strategiyasi va baholash yondashuvlarini belgilaydigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qurilishni o'z ichiga olgan loyihalar, tegishli ravishda, qurilish normalari va qoidalari, ekologik jihatlarni va joylashuvga qo'yiladigan talablarni hisobga olishi lozim. Rivojlanish va kengaytirish loyihalarini o'z navbatida, bozorni tahlil qilishga unchalik ham talabchan bo'lmagan holda, avvaldan mavjud bo'lgan xarajatlar va daromadlarni, loyiha bilan bog'liq yangi xarajatlar va daromadlarni taqsimlashga ko'proq talabchan hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini investitsiya maqsadlari bo'yicha ham ajratish mumkin (1-rasm):

**INVESTITSIYA LOYIHALARINING MAQSADLARI
BO'YICHA TURLARI**



muayyan mahsulot turini ishlab chiqarish hajmini oshirish



mahsulot turini kengaytirish



mahsulot sifatini yaxshilash



kerakli mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish



ijtimoiy yo'nalish

1-rasm. Investitsiya loyihalarining maqsadlari bo'yicha turlari

(Abidxadjaev va boshq., 2023)

Bundan tashqari, investitsiya loyihalari ularni amalga oshirish va natijalarni olish uchun zarur bo'lgan vaqtga nisbatan ham bo'linadi (2-rasm):



2-rasm. Investitsiya loyihalarining vaqt bo'yicha turlari

(Abidxadjaev va boshq., 2023)

Ko'pincha, amalga oshirish muddati loyihaning qiymati bilan bog'liq, ammo bu har doim ham kichik byudjetli loyihalarning amalga oshrilish muddati qisqa bo'ladi, degani emas va aksincha.

Investitsiyalar hajmi bo'yicha yirik, o'rta, kichik va mikro loyihalarga ajratiladi. Hozirgi vaqtida O'zbekiston qonunchiligidagi loyihalar hajmi bo'yicha 8 aniq ajratilmaydi, ammo jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda quyidagi bo'linishlarni keltirish mumkin (2-jadval):

Yuqorida berilgan jadvalda keltirilgan investitsiya loyihalarining hajmi bo'yicha turlari loyihalarning qiymati bo'yicha baholanadi va shunga qarab uning vazifasi amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihasi tushunchasi ikkita asosiy hujjatni o'z ichiga oladi:

- rejalashtirilgan amaliy harakatlarni yoritib beruvchi biznes-reja – nima qilinadi va qanday qilib amalga oshiriladi;

- kapital qo'yilmalarni asoslاب beruvchi loyiha-smeta hujjatlari to'plamini o'zida mujassam etgan investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishi – loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini asoslovchi, amalga oshirish xarajatları va

daromadlarning tushish vaqtida jadvali taqdim etilgan holda, rejalashtirilgan xarajatlar va taxmin qilingan daromadlarni tasdiqlovchi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar va hisobkitoblardir.

2-jadval

Investitsiya loyihalarining hajmi bo'yicha turlari (Abidxadjaev va boshq., 2023)

Hajmi bo'yicha turi	Qiymati	Vazifasi
Yirik loyihalar	10 million AQSH dollaridan ortiq	Asosan bu turdag'i loyihalar yangi korxonalar qurish, yirik korxonalarni modernizatsiya qilish, hududlararo xususiyatga ega infratuzilmalarni nazarda tutadi.
O'rtacha loyihalar	1-10 million AQSH dollari	Odatda bu o'rta va qisqa muddatli loyihalar bo'lib, ko'pincha ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishni, mahalliy ahamiyatga ega loyihalarni o'z ichiga oladi.
Kichik loyihalar	100 ming -1 million AQSH dollari atrofida	Ko'pincha mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qisqa muddatli loyihalar, asosan ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki kichik qurilish, ijtimoiy maqsadlar uchun mo'ljallangan.
Mikro loyihalar	100 ming AQSH dollarigacha	Ko'pincha mahalliy rekonstruksiya loyihalari yoki qurilishni nazarda tutmaydigan loyihalar hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonida vaqt va samaradorlikni baholashning bir nechta usullari mavjud. Bularغا quyidagilar kiradi:

1. **Tarmoq rejalashtirish usullari (PERT, CPM)** – bu usullar loyihani amalga oshirishning ketma-ketligi va vaqtini rejalashtirish orqali vaqtini samarali boshqarishga imkon beradi.

2. **Vaqtni boshqarish dasturlari** – zamonaviy loyiha boshqaruvi dasturlari (MS Project, Primavera) yordamida loyihaning har bir bosqichini aniq nazorat qilish va uni vaqtida yakunlash imkonini mavjud.

3. **Iqtisodiy samaradorlikni baholash** – NPV (Net Present Value – Hozirgi sof qiymat), IRR (Internal Rate of Return – Ichki daromad darajasi) kabi moliyaviy ko'rsatkichlar yordamida investitsiya loyihasining rentabelligi va moliyaviy natijalari baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali loyihaning umumiyligi iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi.

Vaqt va samaradorlikni boshqarishda duch kelinadigan asosiy muammolar orasida rejalashtirilgan muddatlarga rioya qilmaslik, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi, byudjetdan ortiqcha chiqimlar va samaradorlikni pasaytiruvchi ichki va tashqi omillar kiradi. Ushbu muammolarni oldini olish uchun vaqtini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qilish, samaradorlikni oshirish uchun texnologik yangiliklarni joriy qilish hamda samarali boshqaruv vositalaridan foydalanish lozim (Umarov, 2018).

Xulosa va takliflar.

Investitsiya loyihalarini boshqarishda vaqt va samaradorlikni baholashni o'rganish muhim ahamiyatga ega chunki loyihaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan vaqt va resurslardan samarali foydalanishga bog'liq. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida vaqt va samaradorlikni baholash asosida investitsiya loyihalarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish bo'yicha quyidagi asosiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish chiqildi:

1. **Vaqtni boshqarish strategiyalarini qo'llash.** Loyihalarni boshqarishda vaqtini to'g'ri rejalashtirish birlamchi vazifa hisoblanadi. Loyihaning har bir bosqichi uchun aniq muddatlarni belgilash zarur. Bu jarayonda Gantt diagrammasi, PERT va CPM (Critical Path Method – Kritik yo'l usuli) kabi zamonaviy vaqtini boshqarish vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu vositalar loyihani yanada samarali rejalashtirish va uni amalga oshirish jarayonida har bir bosqichni nazorat qilish imkonini beradi.

2. Samaradorlikni oshirish uchun resurslarni boshqarish. Investitsiya loyihalari ko'p miqdordagi resurslarni talab qiladi. Shuning uchun resurslarni to'g'ri taqsimlash va ularni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Bunda texnik, moliyaviy va inson resurslarini rejalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Optimal tarzda resurslardan foydalanish orqali loyiha xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirish mumkin.

3. Xavflarni minimallashtirish va risklarni boshqarish. Har bir loyiha turli xil risklar va xavflarga duch keladi. Shu sababli, loyiha boshlanishidan oldin xavflarni aniqlash va baholash kerak. Ushbu jarayonda SWOT tahlili, Monte-Karlo tahlili kabi xavflarni aniqlash va baholash metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu metodlar loyiha davomida duch kelinadigan xavflarni oldindan ko'rish va ularga qarshi choralar ko'rish imkonini beradi.

4. Moliyaviy samaradorlikni baholash. Loyihalarni amalga oshirishdan oldin ularning moliyaviy samaradorligini baholash zarur. Bunda NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return) kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash tavsiya etiladi. Bu ko'rsatkichlar orqali loyihaning iqtisodiy jihatdan qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishi aniqlanadi va investorlar uchun foydali qarorlar qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli boshqarish uchun vaqtini samarali boshqarish va samaradorlik ko'rsatkichlarni baholash juda muhimdir. Ushbu tavsiyalar va takliflar loyiha menejerlariga resurslardan samarali foydalanish, xavflarni minimallashtirish, moliyaviy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgan loyihalarni amalga oshirishda yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni qo'llash orqali loyihalarni yanada samarali boshqarish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Abidxadjaev U., Karimov M., Davletov F. (2023) Davlat mablag'lari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha qo'llanma. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI). -T.: 72 bet.

Burxanov A. (2018) Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning asosiy omili. Biznes-Ekspert, №10. -7-13 bet.

G'ozibekov D, Nosirov E. (2007) O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish. Risola. -T.: "Iqtisod-Moliya". -B.92

Hoshimov J.R. (2022) Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi Avtoreferati. - T.: TMI, -14 b.

Karimov N.G'. (2007) Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. -T.: Fan va texnologiya, -240 b.

Umarov F.U. (2018) Innovatsion-investitsiya faol tadbirdorlikning muhim omili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron журнали. № 1, yanvar-fevral.

Нодирханов У.С. (2011) Приямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. -T.: "Fan va texnologiya", -184 б.